

## Kompyuter Tarmoqlaridan Maqsadli Foydalanishning Hozirgi Vaqtdagi O‘rni

**Sherriyev Mirjalol Abdullayevich**

Buxoro davlat pedagogika instituti “Matematika va informatika” o‘qituvchisi,  
sherriyevmirjalol6@gmail.com

**Xayriyeva Anvara Sadullayevich**

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi, xayriyevaanvara@gmail.com

**Annotatsiya:** Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo‘lishi axborot texnologiyalarining umumiy ta‘lim maktablari ta‘lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo‘l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o‘stirishda tutayotgan o‘rni va ta‘siri ortib borayotganligini inkor etib bo‘lmaydi. Ushbu maqolada talaba va o‘qituvchilarning kompyuter tarmoqlaridan maqsadli foydalanishining hozirgi vaqtdagi o‘rni tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** Kompyuter, dasturlash, texnik vositalar, ta‘lim, axborot texnologiyasi, masofadan o‘qitish.

**Kirish.** Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta‘lim sohasida, o‘quv faoliyatida va o‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta‘limni amalga oshirish jarayonida hayot bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi. O‘qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi. Axborot texnologiyalarini qo‘llashda o‘quvchi shaxsining butun imkoniyatlarini amalga oshirishga: kompyuter vositalari orqali bolaning bilishga oid, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetikaviy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilish lozim [1]. Kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning to‘laqonli vositasiga aylantirish uchun o‘qituvchining o‘zi axborot texnologiyalari sohasida bilimdon (salohiyatli) bo‘lishi kerak.

Jahon pedagogikasi amaliyotida qator olimlar, jumladan, M. V. Bulanova, Toporkova va boshqalar o‘qituvchining axborot texnologiyalari sohasidagi bilimdonligini quyidagi sifatlar bilan baholaydilar:

1. zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik;
2. shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish;
3. umumiy kommunikativ (o‘zaro muloqot qilish) madaniyatining yuqori darajada bo‘lishi;
4. axborot vositasida o‘zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo‘lishi;
5. o‘zini refleksiylash (o‘z ruhiy holatini tahlil qilish) ehtiyojining bo‘lishi;
6. axborotni qabul qilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o‘zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o‘zlashtirish.

Pedagog-olim V. K. Selevko esa o'qituvchining kompyuter savodxonligini kompyuterli texnologiya mazmunining muhim qismi deb hisoblaydi va uning tarkibiga quyidagilarni kiritadi:

- informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilish;
- kompyuterli texnikaning umumiy tuzilishi va funksional imkoniyatlarini bilish;
- zamonaviy operatsion tizimlarni bilish;
- umumiy vazifa bajaradigan zamonaviy dasturning qobiqlar va operatsion vositalarini (Norton Commander, Windows va boshqalarini) bilish hamda ularning vazifalarini o'zlashtirish;
- hech bo'lmaganda bir matn redaktorini o'zlashtirganlik;
- dasturlashtirish algoritmlari, tillari va paketlari haqidagi boshlang'ich tasavvurlarining bo'lishi;
- utilitar (amaliy foyda beradigan) vazifalarini bajaradigan amaliy dasturlaridan foydalanishning boshlang'ich tajribasi.

O'zbekiston Respublikasida internet rivoji bevosita mamlakat taraqqiyoti bilan uzviy bog'lanadi. U o'zida zamonaviy davlat va aholi turmush tarziga xos barcha bosqichlarni aks ettiradi [2]. O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirishda masofali o'qitish alohida o'rin egallaydi. Masofadan turib o'qitish bu inson o'zining bilim darajasini oshirishni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda xoxlovchilar, maktabga borish imkoniyati bo'lmagan, nogironlar, keksa yoshdagilar kabilar uchun katta yo'l ochib beradi. Masofali o'qitishda biz hech kimni majbur qila olmaymiz. Bunda xoxlovchi o'z imkoniyatiga qarab muloqot qilish, qo'shimcha axborot to'plash va fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Masofali o'qitish hozirgi kunning barcha talablariga javob beradi, ayniqsa, yo'l xarajatlarini hisobga olmaganda, kunduzgi ta'limni barcha sistemalarini tashkil qilish mablag'lariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ma'lumki, ko'p yillar davomida sirtqi ta'lim asosan televedeniya, radio yoki matbuot orqali amalga oshirilib kelinmoqda. Lekin bularni amalga oshirish ko'pgina faktorlar hisobida qiyinchilik bilan amalga oshirilib kelindi.

Yangi axborot texnologiyalari asosida masofali o'qitishni tashkil qilishning bir qator usullari mavjud: interfaol teoevedeniya, telekommunikatsiya, CD-ROM texnologiyasi asosida, o'quv radio va televedeniya, video lentalar va hokazo.

So'ngi yillarda to'rt xil turdagi masofali o'qitish keng tarqalmoqda:

1. Interfaol televedeniya (two-way TV);
2. Axborot almashinuviga asoslangan kompyuterli telekommunikatsiya setlari (regional va global, internet);
3. Multimediali, interfaol rejimli, videokonferentsiyalar o'tkazish imkoniga ega kompyuterli telekommunikatsiya setlari;
4. Birinchi va ikkinchi turlar kesimida.

Masofadan o'qitish bu Internet tarmog'i orqali sizga qulay bo'lgan vaqtda o'qishdir. Masofadan o'qitishning tarkibiy belgilari: o'qituvchi, o'quvchi, kommunikatsiyadir. Masofadan o'qitish uslubiy materiallari quyidagilardir:

- Darslik
- Audio va video darsliklar
- Onlayn darslar (Internet saxifa)
- Elektron kutubxonalar
- Testlar
- Mul'timedia elektron darsliklar

Shunday qilib, masofadan o'qitishda virtual kutubxonalar, sputnik orqali videokonferentsiyalar, darslar, Internet yordamida muloqot va informatsiya olish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu esa o'quvchi uchun maxsus o'qish doirasini berdi.

O'quvchining fanni o'zlashtirish tezligi va sifati keskin yaxshilandi. Aholi malakaviy darajasi tabiiy holda mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida, shuning bilan birga demokratik jamiyatning shakllanishida, millatning ijtimoiy-ma'naviy kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Talabaniing bilim saviyasi, fanni nechog'li o'zlashtirganligi esa, uning bajargan mustaqil topshiriqlarida o'z ifodasini topadi.

So'zsiz aytish mumkinki, kompyuter XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri bo'ldi. Davr talabiga ko'ra bugunga kelib kompyuter texnikasi juda rivojlanib ketdi. Ma'lumotlarni yig'ish, boshqarish, qayta ishlash va uzatish ayniqsa, hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda [3]. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamalakarlarining hozirgi kunda eng zamonaviy va ixcham texnologiyalaridan foydalanishga bo'lgan talabi kun sayin ortib bormoqda. Chunki butun dunyo XXI asr - axborot asri deb tan olgandir [4]. Axborot asrida katta hajmdagi ma'lumotlar ombori va axborotlar ustida ishlashga to'g'ri kelinmoqda. Jamiyat taraqqiyotining rivojlanishiga, kunlik ehtiyojga kerakli vositalar yuz berayotgan jadal o'zgarishlar ularning bir qismi bo'lgan informatika hamda axborot texnologiyalariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi dasturiy va texnik ta'minotga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda [5]. Bu ta'sirlar shunchalik kuchliki, yillar ichida emas, balki oylar ichida o'zgarib va boyib bormoqda [6]. Axborot texnologiyalari va uning texnik, dasturiy ta'minoti yangi variantlarining paydo bo'lishi bu sohadagi xizmat qilish usulini tubdan o'zgartirishni talab etadi [7]. Shuningdek, axborot texnologiyasi haqida bilish talabalarning axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishini oshiradi [8]. Uning asosini tashkil etuvchi axborot ham neft, gaz, foydali qazilmalar kabi an'anaviy moddiy zaxira turlari kabi jamiyatning qimmatli zaxiralaridan biridir, demak, uni qayta ishlash jarayonini moddiy zaxiralarni qayta ishlash jarayonlari bilan qiyoslanganda texnologiya sifatida qabul qilish mumkin. Shunda quyidagi tushunchani keltirish ayni muddao bo'lar edi:

Moddiy ishlab chiqarishning maqsadi - inson yoki tizim ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'lsa, axborot texnologiyalarining maqsadi - inson tahlil qilishi uchun axborotni ishlab chiqarish va uning asosida biror bir xatti-harakatni bajarish bo'yicha qaror qabul qilishdir.

Axborot texnologiyasi obyekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsuloti)ning holati haqidagi yangi sifat axborotini olish uchun ma'lumotlar(boshlang'ich axboroti)ni to'plash, qayta ishlash va uzatishning vosita va uslublari jamlanma-sidan foydalanuvchi jarayondir.

Axborot texnologiyasi axborot tizimlari bilan mukammal bog'langan bo'lib, ular uchun axborot texnologiyasi asosiy muhit hisoblanadi. Axborot texnologiyasi kompyuterda saqlanayotgan ma'lumotlar ustidan tartiblashgan qoidalar asosida amal, harakat va bosqichlarni bajarish jarayonidir[9]. Axborot texnologiyalarining asosiy maqsadi - birlamchi axborotni maqsadga yo'naltirilgan harakat natijasida qayta ishlash yo'li bilan foydalanuvchiga kerakli axborotni berishdir.

Axborot tizimi kompyuterlar, kompyuterlar tarmog'i, dasturiy mahsulotlar, ma'lumotlar bazasi, insonlar, turli texnik va dasturiy aloqa vositalari hamda boshqa qurilmalardan tashkil topgan muhitdir. Axborot tizimining asosiy maqsadi - axborotni saqlash va uzatishdan iborat [10]. Axborot tizimi axborotni qayta ishlash inson-kompyuter tizimidir.

Qisqacha qilib aytganda, bugungi kundagi har bir soha o'zining keng ishlatilish sohasiga ega ekan, biz pedagoglardan ularni shakllantirish talab etiladi. Shuningdek, informatika sohasi fanga kirib kelgan eng so'nggi va eng rivojlanib borayotgan sohadir. Undan keng foydalanish kelajagimizni yanada yaxshilash bilan uzviy bog'liq ekan, bizlar uni yanada chuqurroq ravishda o'rganishimiz bugungi kunda talab etiladi. Zero, bu sohadan barcha ishlarda, shuningdek, ta'limda ham keng qo'llanilib kelinayotgani barchamizga qulaylik yaratib kelmoqdadir. Shuning uchun uni jamiyat orasida, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish barchamizning burchimizdir.

## Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, kurs ishlaridan asosiy maqsad: ta`lim bo`yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo`llashdan iborat.

### Adabiyotlar ro`yxati:

1. Ахмедов, Б. А. (2021). ЗАДАЧИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАДЕЖНОСТИ КЛАСТЕРНЫХ СИСТЕМ В НЕПРЕРЫВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ. EURASIAN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION JOURNAL, 1(22), 15-19.
2. Akhmedov, B. A., Xalmetova, M. X., Rahmonova, G. S., Khasanova, S. Kh. (2020). Cluster method for the development of creative thinking of students of higher educational institutions. Экономика и социум, 12(79), 588-591.
3. Akhmedov, B. A., Makhkamova, M. U., Aydarov, E. B., Rizayev, O. B. (2020). Trends in the use of the pedagogical cluster to improve the quality of information technology lessons. Экономика и социум, 12(79), 802-804.
4. Akhmedov, B. A., Majidov, J. M., Narimbetova, Z. A., Kuralov, Yu. A. (2020). Active interactive and distance forms of the cluster method of learning in development of higher education. Экономика и социум, 12(79), 805-808.
5. Akhmedov, B. A., Eshnazarova, M. Yu., Rustamov, U. R., Xudoyberdiyev, R. F.
6. (2020). Cluster method of using mobile applications in the education process. Экономика и социум, 12(79), 809-811.
7. Akhmedov, B. A., Kuchkarov, Sh. F., (2020). CLUSTER METHODS OF LEARNING ENGLISH USING INFORMATION TECHNOLOGY. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(2), 40-43.
8. Akhmedov, B. A. (2021). DEVELOPMENT OF NETWORK SHELL FOR ORGANIZATION OF PROCESSES OF SAFE COMMUNICATION OF DATA IN PEDAGOGICAL INSTITUTIONS. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(3), 113-117.
9. Ахмедов, Б. А. Шайхисламов, Н. Мадалимов, Т. Махмудов, Қ. (2021). Smart технологияси ва ундан таълимда тизимида кластерли фойдаланиш имкониятлари. SCIENTIFIC PROGRESS, 1(3), 102-112.
10. Nabiyev, D. P. (2025). DARS JARAYONIDA MA'LUMOTLAR BAZASIDAN FOYDALANISH METODIKASI. Inter education & global study, (2), 355-362.
11. Paxlavonovich, N. D. (2024). THE PROBLEM OF INNOVATIVE ACTIVITY IN THE ORGANIZATION OF EDUCATION ON THE BASE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(6), 634-638